

4 - MARUZA. D.I. Elementlarning zamonaviy davriy jadvali, elementlarning davriy xususiyatlari

Reja:

1. Davriy qonun va elementlar davriy sistemasining rivojlanish bosqichlari.
2. Davriy sistemaning tuzilishi. Davrlar, guruhlar. Asosiy va yonaki guruhchalar.
3. Atomlar xossalaring davriyligi. Ionlanish potensiallari. Elektronga moyillik. Elektromanfiylik qiymatlarining davr va guruhlarda o'zgarish qonuniyatlari.
4. Davriy qonun ahamiyati.

Tayanch iboralar: Davrlar, guruhlar. Asosiy va yonaki guruhchalar. Davriy sistema chegaralari. Davriylik. Analoglar. Guruppaviy o'xshashlik. Katta va kichik davrlar. Ionlanish potensiali. Elektromanfiylik. Elektronga moyillik. Metallar va metalmaslarningo'rni. Kimyoviy elementlar oilalari.

Kimyoviy elementlarni sistemalashtirish uchun qadimdan turli xil izlanishlar olib borilgan. (I Debereyner, A Shankurtua, Ch. Odling, Dj. Nyulendes va boshqa izlanishlarni misol keltirish mumkin.) 1829 yilda I. Debereyner birinchi bo'lib, kimyoviy elementlarning xossalari bilan elementlarning atom og'irliliklari orasidagi bog'liqlikni o'rganib o'xshash bo'lgan ko'pgina elementlarni uchtadan gruppalarga joylashtirib triadalar qonunini yaratdi. Bu 21 ta elementdan iborat edi:

1. SI, Br, I;
2. S, Se, Te;
3. Li, Na, K;
4. Ca, Si, Ba;
5. Fe, Co, Ni;
6. Os, Ir, Pt;

1862 yilda esa Franstuz kimyogari A. Shankurtua kimyoviy elementlarning atom massalarining spiralsimon tartibda ortib borishiga ko'ra joylashtirdi. Bu erda xossalari bir - biriga o'xshash bo'lgan elementlar gruppalari hosil bo'lishi kuzatildi. 1857 yilda Ch. Odling atom massalarining ortib borish tartibida 57 ta elementdan iborat bo'lgan sistemani yaratdi. 1866 yilda Dj. Nyulendes tomonidan oktava qonuni yaratildi. U kimyoviy elementlarning xossalari bilan atom og'irliliklari orasidagi bog`lanishlarni ko'rsatishga urindi va har 8 ta element orasida o'xshashlik borligini aniqladi va quyidagi jadvalni yarattdi:

H - 1	F - 8	SI - 15
Li - 2	Na - 9	K - 16
Be - 3	Mg - 10	Ca - 17
B - 4	Al - 11	Ti - 18
C - 7	Si - 12	Cr - 19
N - 6	P - 13	Mn - 20
O - 7	S - 14	Te - 21

Shundan keyin, 1864 yilda nemis olimlaridan Odling va Lotar - Meyerlar ham davriy sistema tuzishga harakat qildilar, ammo ular ham o'z izlanishlaridan aniq bir ilmiy xulosaga kela olmadilar.

1869 yilda D.I.Mendeleev tomonidan davriy qonun asosida yaratilgan elementlar davriy sistemasi olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. D.I. Mendeleev elementlar davriy sistemasini yaratgan paytda dastlab 63 ta element ma'lum edi. U elementlarning yuqori oksidlanish darajalariga qarab o'zi tuzgan sistemaga joylashtirdi, noma'lum bo'lgan elementlarni xossalarni oldindan aytib ularga bo'sh joylar qoldirdi. Bu elementlar 10 yil ichida D.I. Mendeleev hayot davrida topildi, ya'ni 1875 yilda Lokok de - Buabodran tomonidan ekaalyuminiy (gallyi), 1879 yilda Shvestariyalik olim Nilson Kleve tomonidan ekabor (skandiy), 1885 yilda esa Vinkler tomonidan ekasilistiy (Germaniy) elementlarning ochilishi va ularning xossalari D.I. Mendeleev bashorat qilgan xossalarga juda yaqinligi D. I. Mendeleevning yanada sistemeni to'g'ri tuzganligini ko'rsatdi.

1869 yil D.I.Mendeleev tomonidan ochilgan davriy qonun hozirgi zamon tabiatshunosligida eng asosiy qonunlardan biri hisoblanadi. U dunyoning material birligini bildirgani uchun nafaqat kimyoda, balki butun tabiatshunoslikda juda katta ahamiyatga ega.Unda kimyoning fan sifatidagi mohiyati, yani tarkibning miqdor o'zgarishlari tasirida, sifat o'zgarishlari ekanligi mujassamlashgan. Boshqa tabiiy fanlar fizika, geoximiya, kosmoximiyalarning rivojlanishida ham davriy qonunning roli katta. Uning

ahamiyati elementlarni faqatgina bir atom og`irlik bilan klasifikasiyalanmaydi. U har bir element xossasini sistemada joylashgan o`rniga qarab bashorat qiladi. Bu faqat oddiy moddalarning fizik xossalari emas, balki butun kimyoviy xossalari ham taaluqlidir. Boshqa elementlar bilan o`zaro tasirini, tuzilishini, binar va ancha murakkab moddalarning hosil bo`lishini, tarkibi va xossalari, elementlarning kislota-asos, oksidlanish-qaytarilish va boshqa xossalari bilish imkonini beradi.

Davriy qonundan foydalanib Mendeleev hali nomalum bo`lgan elementlarni xossalari bashorat qildi. Malumki haqiqiy ilmiy nazariyaning kuchi u asosda olingan faktlarni tushuntirishgina emas, balki yangi faktlarni ko`ra bilishdadir. Elementlarning xossalari bir xil tartibda tavsiflash, davriy sistemada har bir elementni aniq, qatiyan, doimiy ravishda turishini nazarda tutadi. Bu o`rnlarning (holat) invariantligi (o`zgarmaslik) deyiladi. Malumki D.I.Mendeleev sistemasida elementlarning holati faqatgina uning tartib nomeri bilan emas, balki u turgan davr nomeri (qator) va gruppasi bilan ham aniqlanadi.

Doimo eng ko`p tarqalgan zamонавиy davriy sistema formasida ham elementning variantlik holati tartibi hamma vaqt ham saqlanmaydi. Shu sababli elementning o`rnini (holatini) bir xilda belgilaydigan umumi kriteriya zarurdir. Mendeleevning o`zi shunday kriteriya sifatida elementlarning kimyoviy xossasini tanladi. U atom massalari qiymatiga nisbatan, kimyoviy xossalari asosiy harakteristika deb hisobladi. Shuning uchun u elementlarning joylarini almashtirdi (^{18}Ar - ^{19}K , ^{27}So - ^{28}Ni , ^{52}Te - ^{53}I) yani gruppalaridagi o`xhashlik kimyoviy xossalari namoyon qilishini ko`rsatdi. Keyinchalik har xil olimlar sistemaning har xil variantlarini taklif qildilar, bularga har xil, ayrim hollarda xususiy kriteriyalar asos qilib olindi. Hozirgi paytda 400 dan ortiq sistema varianti mavjuddir. Atom tuzilishining elektron nazariyasi rivojlanishi asosida, elementlarning kimyoviy xossalari ularning atom elektron strukturalarning funkstiyalari ekanligi aniqlandi. Shu asosda elementning davriy sistemadagi holatini aniqlashning ob`ektiv kriteriysi qilib atomning elektron tuzilishini tanlash maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi.

Davriy qonun rivojlanishini 3 etapga bo`lish mumkin.

1 - *etapda*, elementlarning xossalari aniqlovchi asosiy argument sifatida atom massasi tanlangan bo`lib, Mendeleev davriy qonuni shu asosda quyidagicha ta`riflanadi:

"Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek, elementlar birikmalarining shakl va xossalari, elementlar atom og`irliklarining ortib borishiga davriy suratda bog`liqdir".

2 - *etapda*, atom nomeri - atom yadro zaryadini aniqlashi isbotlandi. Izotop va izobarlarning ochilishi element tabiatini aniqlovchi haqiqiy argument uning atom massasi emas, balki yadro zaryadi ekanligi ko`rsatildi.

Haqiqatdan ham bir xil atom massali izobarlar (^{40}Ar , ^{40}K , ^{40}Ca) - har xil element atomlariga ta`luqli ekanligi, va shu bilan birga yadro zaryadlari bir xil atomlar - izotoplari (^{16}O , ^{17}O , ^{18}O) atom massalari har xil bo`lishiga qaramay birgina elementga mansub ekanligi isbotlandi. Shu sababli davriy qonun yangicha ta`riflandi:

" Oddiy moddalarning, shuningdek, elementlarning shakl va xossalari ular atomlari yadrolarining zaryadiga davriy ravishda bog`liqdir".

Bu o`zgarish prinstipial xarakterga ega bo`lib, element tabiatini tushunishda yangi sifatiy darajasidan dalolat beradi, shunga qaramasdan davriylikning fizikaviy ma`nosi ya`ni nima uchun atom nomerining monoton ortib borishi bilan, elementning xossalari monoton (bir tekisda) o`zgarmasdan davriy o`zgarishining sababi noaniq edi.

Faqat 3 - *etapda*, atom elektron tuzilishining kvantomexanik nazariyasining rivojlanishi asosida davriy qonunning fizik ma`nosi ochildi.

Davriylikning moxiyati yuqori energetik darajada o`xhash valent elektronlar konfigurasiyalarining davriy takrorlanishi va elektron qavatlarning nisbiy sig`imi mavjudligiga asoslangan.

Davriy sistemaning strukturasi va rivojlanishi quyidagi tartibda amalga oshirildi.

Elementlar davriy sistemasi 7 ta davr, 8 ta grupper va 10 ta qatorni o`z ichiga oladi.

Ishqoriy metallar bilan boshlanib inert gazlar bilan tugallangan elementlarning gorizontal qatoriga davr deyiladi. Davrlar elementlarning elektron qavatlari sonini bildiradi.

I, II, III - chi davrlar bitta qatordan iborat bo`lib, kichik davrlar deyiladi. IV, V va VI davrlar ikkita qatorni o`z ichiga olgan bo`lib, katta davrlar deyiladi. VII - chi davr ishqoriy metallar bilan boshlanib, inert gazlarga etib kelmaganligi uchun tugallananmagan davr deyiladi.

Kimyoviy xossalari bir - biriga o`xhash, tashqi elektron qavatidagi elektronlar soni bir xil

bo'lgan elementlarning vertikal qatoriga gruppaga deyiladi. Element qaysi guruppada joylashgan bo'lsa uning eng yuqori oksidlanish darajasi guruppa nomeriga teng bo'ladi, ya'ni tashqi elektron qavatidagi elektronlari soni shu guruh nomeriga teng bo'ladi. Guruppalar bosh guruppa (asosiy) va qo'shimcha (yonaki) guruppachaga bo'linadi. Bosh guruppa elementlari faqat s va p elementlardir, qo'shimcha guruppa elementlarini esa d va f - elementlar tashkil qiladi. Qo'shimcha guruppa elementlarida faqat tashqi elektron qavatidagi elektronlardan tashqari, tashqaridan ichki elektron qavatidagi elektronlar ham valent elektron hisoblanadi. Shuning uchun ular bir biridan farq qiladi.

Davriy qonun tabiatning asosiy qonunlaridan biri bo'lib, elementlarning miqdor (yadro zaryadi, elektronlar soni va atom massalari) va sifat (elektronlarning taqsimlanishi, xossalalar to'plami) xarakteristikalarini birligini ko'rsatadi.

Atom tuzilishi hozirgi zamon tasavvurlari asosida, element aniq davrga mansubligi atomning normal, uyg'onmagan holatdagi elektron qavatlarini soni bilan aniqlanadi.

Davr nomeri, tashqi elektron qavat nomeriga teng bo'ladi, u tugallanmagan elektronlar bilan to'ladi.

Elementning u yoki bu gruppaga mansubligi tashqi va tashqaridan ichki qavatidagi umumiy valent elektronlar soni bilan aniqlanadi. Mas: 24 Sr - [Ar] $^{18}3d^54s^1$ va 16 S - [Ne] $^{10}3s^23p^4$.

6 chi gruppaga elementlari bo'lib, ikkala atom 6 tadan valent elektronlarga ega. Davrlar va gruppalarga bo'linish Mendeleev tomonidan kiritilgan bo'lib, elementning aniq gruppaga mansubligi uning kimyoviy xossasiga, yuqori valentli oksid va gidroksidlarining forma va xarakteriga asoslanib aniqlangan. Haqiqatdan ham bir - biriga o'xshash bo'lмаган metallik xrom va metallmas oltingugurt gruppaga nomeriga to'g'ri keladigan yuqori oksidlanish darajasidagi bir xil tarkibli CrO_3 , SO_3 oksidlarini hosil qiladi, ularning xossalari ham o'xshash (kislotali). Ularga to'g'ri keladigan gidroksidlar yordam ifodalangan kislota xossasiga ega H_2CrO_4 xromat va H_2SO_4 - sulfat kislotalaridir. Shunday qilib, davriy sistema gruppalarida tiplariga bog'liq bo'lмаган holda qavatlarida to'lishi mumkin bo'lgan bir xil sondagi elektronlari bo'lgan elementlarni birlashtiradi. Shunday qilib birlashtirish ko'pgina o'xshash (analog) turlarni ajratish imkonini beradi. Elementlarning bunday umumiy o'xshashlik turlariga gruppaga analoglari (o'xshash gruppalar) deyiladi va ular gruppaga nomeriga muvofiq faqat yuqori oksidlanish darajalarida namoyon bo'ladi. Shu belgisiga nisbatan bosh va yordamchi gruppachalar (A-gruppaga va V-gruppaga) bitta gruppaga birlashtiriladi.

III - gruppaga - V, Al, Ga, In, Tl (ns^2np^1) va skandiy podgruppachasi [$ns^2(n-1)d^1$] ya'ni bir xil valent elektronlari (3) ga ega bo'lgan elementlarni birlashtiradi. Xuddi Shunday holat sistemaning boshqa gruppalarini uchun ham xarakterlidir.

Gruppaviy o'xshashlik - ushbu gruppaga kirgan elementlarning hamma xos xususiyatlarini bildirmaydi, chunki u ko'pincha umumiy belgi, valent elektronlar soniga asoslanib, valent orbitallar tipini hisobga olmagan holda yuzaga keladi.

Bu o'xshashlik elementlarning quyi oksidlanish darajalarida ayniksa erkin holatda o'z kuchini yo'qotadi. Ammo har bir gruppada bir - biriga chuqur o'xshashlikni namoyon qiladigan elementlarni ajratish mumkin. Bunday o'xshashlik nafaqat yuqori oksidlanish darajalarida namoyon bo'lmasdan, hamma oraliq oksidlashish darajalarida, nafaqat bir xil valent elektronlarida, elektronlar joylashgan bir xil tipdagi orbitallarda namoyon bo'ladi. Bu belgiga asoslanib bir gruppada gruppachalarga ajratiladi. Bir podgruppachada joylashgan elementlar xossalardan juda yakin o'xshashlikka ega, bo'lar elektronlar bilan to'ladigan bir xil valent orbitallar tipiga ega bo'lishiga asoslangan. Ancha chuqur o'xshashlikka ega bo'lgan bunday analogiyaga tipaviy o'xshashlik deyiladi.

Shunday qilib, bir podgruppada - bir xil valent orbitallar tipiga ega bo'lgan bu gruppaga mansub elementlarga o'xshash tip (analog tip) deyiladi.

Mas: yuqorida misol qilib olingan III - gruppaga o'xshash tip deyiladi, chunki hamma elementlar uchun bir xil valent elektron orbitallar (ns^2np^1) ga ega. Skandiy podgruppasi elementlari ham qo'shimcha III B - gruppaga - o'xshash tiplarni hosil qiladi, chunki bular uchun ham $ns^2(n-1)d^1$ bir xildir.

Atom tuzilishining elektron nuqtai - nazaridan davr nomeri yorqin fizik ma'noga egadir. U bosh kvant son qiymatiga mos keladi va to'ldiradigan yoki tugallangan s va r qavatchalar bilan xarakterlanadi.

Har bir davr valent elektron konfigurasiyasini ns^1 bilan boshlanib, $ns^2 np^6$ stabil (barqaror) konfigurasiya bilan tugallanadi.

Atomlarida faqat s va r qavatchalar bilan to'ladigan davrlarga kichik davrlar deyiladi. Bularga

birinchi 3 ta davr misol bo'ladi.

Ularga 2, 8, 8 ta elementlar muvofiq keladi. 1chi va 2 chi davrdagi elementlar soni, elektron qavatlarning maksimal sig`imiga mos keladi ($p = 1$, $p = 2$). 3 chi elektron qavat sig`imi, elementlar sonidan yuqori (ortiq). Bu 3d - orbitalning mavjudligi bilin bog`liq bo`lib, u bo'sh, uni elektronlar bilan to'lishi faqat 4 chi davrdagina energetik qulaydir. Shunday qilib, 4 - chi davrdan boshlab elektron qavatlarning elektronlar bilan to'lish tartibi buziladi va ns, np - elementlar oraligida. d - elementlar dekadasi paydo bo'ladi, ularda tashqaridan ichki ($n - 1$)d qavatcha to'ladi. Shunday strukturaga 4 chi va 5 chi davrlar ega bo'ladi va ular 18 tadan elementga ega. 6 - chi va 7 - chi davrlarda d - elementlar dekadasidan tashqari, ($n - 2$)f - qavatchasi to'ladigan elementlar oilasi mavjuddir. Bu davrlar 32 ta elementdan tashkil topgan.

s va p elementlardan tashqari d - elementlar dekadasi va f - elementlar oilasidan tashkil topgan davrlarga katta davrlar deyiladi.

Katta davrlardagi atomlarda s va p tashqi qavatlardan tashqari ichki ($n - 1$)d va ($n - 2$)f - qavatchalar ham bo'ladi va ular ham valent elektronlar hisoblanadi.

Elementlarning kimyoviy xossasi, ma'lumki atom orbitallarining to'lishini o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun kichik davrlarda, qatorda hammasi bo`lib 8 ta element bor, ularning atomlarida eng tashqi qavatlari elektronlar bilan to`lib boradi va biridan ikkinchisiga o'tganda Ishqoriy metalldan boshlanib, inert gazgacha element xossasi keskin o'zgaradi.

Katta davrlarda s va p elementlar shu qonuniyatga bo'ysunadi, d - elementlarda esa tashqi qavat o'zgarishsiz (ns^2) qoladi, tashqa ridan ichki ikkinchi qavat elektronlar bilan to`lib borganligi sababli xossalari ancha bir tekisda (plavnoe) o'zgarishi xarakterli dir. Hamma d - elementlar metallardir. Yanada ko'proq darajada bu xususiyat f - elementlar uchun xarakterlidir, chunki ularda tashqaridan ichki uchinchi qavat to'ladi. f - elementlarning hammasini kimyoviy xossalari bir - biriga yaqin.

Kimyoviy elementlar oilalari. Oxirgi pag'onacha qanday elektronlar bilan to'lishi bilan bog`liq holda davriy sistemadagi hamma elementlar 4 ta oilaga (tipga) bo`linadi:

Ionlanish energiyasi kimyoviy elementning asosiy xarakteristikalaridan biri bo`lib, atom orbitalida elektronning qanday ushlab turganligini ko'rsatib elementning kimyoviy xossasini harakterlaydi. Atomda elektronlar yadroga faqatgina tortilmasdan ular o'zaro bir - biri bilan bir xil ishorali zaryadlar itarishish kuchiga ham ega. Shuning uchun birinchi elektronni uzib olishga kam energiya talab qilinadi, keyingilariga esa ko'proq energiya sarflashga to'g'ri keladi.

Ionlanish energiyasi eng kam bo'lган elementlar, ishqoriy metallardir, chunki ular atom yadrosi atrofida tashqi qavatda joylashgan bitta elektroni eng kam energiya qiymatiga ega bo`lib, osongina boshqa element atomiga beradi, ionlanish energiyasi eng yuqori bo'lган qator VIII - guruppa elementlari (inert gazlar) qatoridir.

Bog`lanish energiyasi - E, Atom yadrolarini o'zaro qo'shilib neytral modda hosil bo'lishida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan energiyaga bog`lanish energiyasi deyiladi. E - kkal/mol, kal/mol, kdj/mol o'lchov birliklarida ifodalanadi. Bog`lanish energiyasining son qiymati ayni moddaning naqadar barqaror yoki beqarorligini bildiradi.

Bog`lanish uzunligi - ℓ - o'zaro bog`langan atom yadrolari orasidagi masofaga bog`lanish uzunligi deyiladi. $\ell = A^\circ$ angstromlarda ifodalanadi. $1 A^\circ = 10^{-8} \text{ m}$ ga teng.

Bog`lanish burchagi - \perp o'zaro bog`langan atom yadrolari orasidagi burchakka bog`lanish burchagi deyiladi. Bog`lanish burchagi - \perp - gradus va minutlarda o'lchanadi.

Bog`lanish uzunligi va bog`lanish burchagi kabi kattaliklar moddaning geometrik shakli (tuzilishi) ni ko'rsatadi.

Mas: Suv molekulasiyagi N va O atomlari orasidagi bog`lanish uzunligi - $0,96 A^\circ$, bog`lanish burchagi esa $104,5^\circ$ ga teng. Demak, suv molekulasiyining tuzilishi uchburchak shakliga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ionlanish potensiali - I. Elementning reakstiyaga kirishish qobiliyatini ionlanish potensiali - I orqali va elektronga moyillik -E degan kattaliklar yordamida tushuntirish mumkin, ya'ni:

a) normal atomdan bitta elektronni uzib olish uchun sarf bo'ladigan energiyaga ayni elementning ionlanish potensiali deyiladi.

$$\text{Uning o'lchami } I = \text{kdj/atom yoki } E_v/\text{atom } E + I = E^+ + I^-$$

$I_1 < I_2 < I_3 < \dots$ In, 1-chi, 2-chi, 3-chi va n-chi elektronlarni uzib olish uchun sarf bo'lган energiya.

Ionlanish potensialining son qiymati ayni elementning metallik yoki metallmaslik aktivligini


bildiradi. Ionlanish potenstiali eng kichik bo'lgan elementlar ishqoriy va ishqoriy - er metallaridir. Elementlar davriy sistemasida davrlarda chapdan o'ngga qarab o'tgan sari elementlarning ionlanish potenstiallari ortib boradi. Guruppalarda esa (guruhlarda) yuqoridan pastga qarab tushgan sari elementlarning ionlanish potenstiallari kamayib boradi. Agar elementning ionlanish potenstialining tartib nomeriga bog'liqligini o'rgansak unda davriylik = ekstremum bilan xarakterlanadi. Maksimum inert gazlarga minumim esa ishqoriy metallarga to'g'ri keladi. Inert gazlarda potenstiallarning maksimum bo'lishiga sabab $ns^2 np^6$ elektron konfigurasiyalarning barqarorligidandir. Kam bo'lishining sababi tashqi ns orbitaldagи elektronlarning yadro zaryadini effektiv ekranlashishidir. Ekranlashish effekti deb mazkur elektronning yadroning musbat zaryadiga tasirini ularning o'rtasiga boshqa elektron tushib kuchsizlantirishiga aytildi. Buning hisobiga elektron 2 bilan emas balki Z_{eff} bilan ($Z_{eff} < Z$) tasirlashishadi. Sleyter yadroning effektiv yadro zaryadi deb aytadi $Z_{eff} = Z - S$, bunda S-yadroning hamma qolgan elektronlar yordamida ekranlashish konstantasi deyiladi. Slayter uning miqdorini aniqlashni ko'rsatib berdi. Ionlashish potenstiali 5-15 V orasida o'zgaradi. Uni grafik ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin.

Elektronga moyillik - E .Normal atomga bitta elektron kelib birikkanda ajralib chiqadigan energiyaga ayni elementning elektronga moyilligi deyiladi.

$$(E) E + e \rightarrow E + E, E = \frac{K_{\text{дж}}}{m_{\text{о.н}}} \text{ yoki } \frac{E_0}{m_{\text{о.н}}}$$

Davr va guruxlarda elementlarning ionlanish potenstiallari qiymatlarining o'zgarishi.


Davrlarda chapdan o'ngga o'tgan sari ortadi.



2 - rasm.

Elementning elektronga moyilligi qanchalik katta bo'lsa, ayni elementning metallmaslik xossasi shuncha kuchli namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra elementlar davriy sistemasida davrlarda chapdan o'ngga o'tgan sari elementlarning elektronga moyilligi ortib, guruppalarda esa elektronga moyillik yuqoridan pastga tushgan sari kamayib boradi.

Uni grafik ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:



3 - rasm.

Elektronga bo'lgan moyillik ham davriy o'zgaruvchan xossa bo'lib u davriy sistemaning VII gruppera asosiy gruppachasida eng yuqori, eng kami esa inert gazlar, ishqoriy va ishqoriy-er metallarida bo'ladi.


Elektromanfiylik - Em. Kimyoviy bog'lanish bo'lishida elektronni berish yoki biriktirib olish xususiyatini ko'rsatuvchi kattalikdir.

Malliken elektromanfiylikni ionlanish potenstiali bilan elektronga moyillik yig`indisiga teng deb tushuntirdi.

$$I + E = Em \quad \text{Elektromanfiylik.}$$

Bunda Malliken va Poling shkalalari mavjud. Poling shkalasida litiy atomining nisbiy elektromanfiyligini 1 ga teng deb qabul qilgan. Elementlar davriy sistemasidagi elementlarning metallik va metallmaslik xossalari tushuntirish uchun 1927 yilda Poling tomonidan nisbiy elektromanfiylik (NEM) qiymatlari tushunchasi kiritildi. Elementlarning NEM lari jadvalda shkala tarzida berilgan, bu shkalaga Poling shkalasi deyiladi. Bundan asosan kimyoviy bog'lanishlarni o'rganishda keng foydalaniladi. Elementlarning NEM lari davrlarda chapdan o'ngga o'tgan sari ortib (asosiy guruhi elementlari uchun), gruppalarda esa yuqoridan pastga tushgan sari NEM lar qiymati kamayib boradi. Uni grafik ko'rinishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Ortadi.



Atom yunoncha so'z bo'lib, «bo'linmas» ma'nosini anglatadi. XX asr boshlaridagi juda ko'p izlanishlar shuni ko'rsatadiki, atom moddaning eng kichik bo'linmaydigan zarrachasi emas, balki atomning o'zi elektron, proton, neytrondan va boshqa elementar zarrachalardan tarkib topganligi isbotlandi. Atomning murakkab sistema ekanligini 1819 yildayoq M.G.Pavlov aytib o'tgan. XIX asrning 80 yillarida B.N.Chicherin atom xuddi «Quyosh» sistemasi kabi tuzilgan va uning markazida musbat zaryadli yadro joylashgan, deb ta'riflagan. 1886 yilda A.M. Butlerov - «atomlar bizga ma'lum kimyoviy jarayonlarda bo'linmas bo'lib qolsada, keyinchalik kashf etiladigan jarayonlarda albatta bo'linishi kerak» deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, atomning murakkabligini tasdiqlovchi daslabki tajriba mal'umotlari angliyalik olim Kruks tomonidan 1879 yilda, siyraklashtirilgan gazlarda elektr zaryadi hosil bo'lishi hodisasini tekshirish natijasida olindi. Agar elektrodlar kavsharlangan shisha naydan havo so'rib olinsa va unga yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok ulansa, katoddan nur tarqala boshlaydi. Bu nurlar katod nurlari deyiladi. Ular magnit maydonida (rasm 1) to'g'ri chiziqli harakatini o'zgartirib, magnit tomonga og'adi. Demak, bu nurlar manfiy zaryadga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu oqim elektronlar oqimidan iborat. Ko'pchilik metallar ultrabinafsha nur bilan yoritilganda (fotoeffekt) ham elektronlar ajralib chiqadi. Elektronning massasi $9,1 \cdot 10^{-28}\text{g}$, bu vodorod atomi massasining $1/1837$ qismini tashkil qiladi. Elektron zaryadi $4,8 \cdot 10^{-10}$ absolyut elektrostatik birlikka yoki $1,6 \cdot 10^{-19}\text{ K}$ ga teng. Atom tuzilishi haqidagi tushunchaning keyingi rivojlanishi, radiaktivlik hodisasining kashf etilishi bilan bog'liq. 1896 yilda A.Bekkerel (1852-1906 yillar) uran birikmalari ko'zga ko'rinxinmaydigan nurlar chiqarish xususiyatiga ega ekanligini va bu nurlar qora qog'ozga o'ralgan foto plastinkasiga ta'sir qilishini aniqladi. Mariya Kyuri Skladovskaya va Per-Kyuri, Bekkerelning ishlarini davom ettirib, toriy va aktiniy ham shunday hossaga ega ekanligini aniqladilar. O'z-o'zidan nurlanish hodisasi radiaktivlik deb, bu xossaga ega bo'lgan moddalar esa radiaktiv moddalar deb ataladigan bo'ldi. Radiaktiv elementlar nurlanishida nurlar qanday zarrachalardan iboratligini birinchi bor 1903 yilda Rezerford aniqladi. U nurlarni yo'liga kuchli magnit maydon ta'sir qilganda nurlar 3 qismga ajraldi.

Rezerford tomonidan radiaktiv nurlanishni o'rganish natijasida nurlar α (alfa), β (beta) va γ (gamma) nurlar chiqishini kuzatdi va α - zarracha musbat zarayadlanganligi, uning massasi 4 uglerod birligiga, tezligi (dastlabki) 20.000 km/sek , geliy ionlari (^{24}He) dan iboratligi aniqlangan. β -zarracha manfiy zaryadga ega, uning harakat tezligi 100000 km/sek . Bu nur tez harakatdagи elektronlar oqimidan iborat ekanligi aniqlangan. γ -nur zaryadsiz bo'lib, xuddi rentgen nuriga o'xshab elektromagnit to'lqin xossasiga ega ekanligi aniqlangan. Shunday qilib, yangi kashfiyotlar atom murakkab sistema ekanligini va bir necha oddiy zarrachalardan tuzilganligini tasdiqladi.

Atom tuzilishi haqida ta'limot Atom tuzilishi haqida birinchi bo'lib M.G.Pavlov 1819 yilda atom murakkab sistema ekanligini aytib o'tgan. 1888 yilda B.I. Chicherin atom xuddi «Quyosh» sistemasi kabi (planetar nazariya) tuzilgan va uning markaziga musbat zaryadli yadro joylashgan, deb ta'riflagan va bu haqda D.I. Mendeleev 1888 yilning 4 fevralida Rusiya fizika va kimyo jamiyatni majlisida ma'ruza qilgan. Lekin bu haqda xalqaro kimyo adabiyotida e'lon qilinmagan. 1903 yilda Dj. Tomson planetar nazariyani inkor qilib, o'zining nazariyasini taklif qildi. Bu nazariyaga ko'ra atom - butun hajm uzra bir tekis tarqalgan musbat zaryaddan iborat bo'lib, bu musbat zaryadni manfiy zaryadli elektronlar neytrallab turadi. 1911 yilda ingliz olimi Ernst Rezerford o'z tajribalari asosida Tomson nazariyasining puchligini isbot qildi va planetar nazariyani qaytadan tikladi. 1911 yilda E.Rezerford α - nurlarni metall (yupqa) plastinkasidan o'tkazganda, ularning ko'p qismi metall plastinkadan o'tib, yo'nalishini o'zgartirmasligini, bir qismi yo'nalishini o'zgartirishini kuzatdi. Juda kamdan-kam hollarda zarracha sachrab orqaga qaytdi. Shu tajriba asosida E. Rezerford atom tuzilishining nuklear (yadro) nazariyasini taklif qildi; atom markazida musbat zaryadli yadro joylashgan bo'lib, uning atrofida elektronlar harakatlanadi. Atom elektroneytraldir, chunki elektronlar soni yadroning musbat zaryadi soniga teng.

Elektronlarning umumiy massasi atomdagi protonlarning (va neytronlarning) umumiy massasidan ancha kichik. Shuning uchun atomning 99,9% dan ortiq massasi uning yadrosiga to'plangan. Chunki atomning diametri 10-8 sm bo'lsa, yadroning diametri 10-13-10-12 sm ni tashkil qiladi. Agar yadro massalarni bir joyga zinch yig'ish mumkin bo'lsa edi, 1 sm³ ga yig'ilgan atom yadrolarning massasi 116 million tonna kelar edi.

Atom yadrosining zaryadi Atom yadrosining musbat zaryadi qanchalik katta bo'lsa, zarrachalar yupqa metall plastinkasidan o'tganda o'zining to'g'ri chiziqli harakatidan shunchalik ko'p og'adi Demak, og'ish burchagi va og'gan zarrachalar sonini aniqlab, yadro zaryadining kattaligini taxminan aniqlash mumkin. Tekshirishlar natijasida, yadro zaryadining kattaligi elementlarning Mendeleev davriy sistemasidagi nomeriga yaqin son ekanligi aniqlandi. Buni G. Mozli (1913) va Chedvik (1920) isbotlab berdilar. Rentgen nurlar nihoyatda tez harakatdagi elektronlarning biror qattiq metallga urilishi natijasida hosil bo'ladi. Rentgen nurlarning spektrini hosil qilish uchun antikatod sinaladigan metalldan yasaladi yoki platinadan yasalgan antikatodga sinaladigan elementning biror birikmasi joylanadi, so'ngra hosil bo'lgan nurni kristalldan o'tkazib, rentgen nuri tarkibiy qismlarga parchalanadi. Spektr hosil qilinadigan ekran sifatida fotoplastinka olinadi; plastinka ochiltirilgandan keyin unda spektr chiziqlari ravshan ko'rindi. Har qaysi elementning rentgen spektri bir-biriga yaqin joylashgan bir necha chiziqdandan yoki chiziqlarning bir necha gruppasidan, ya'ni seriyalardan iborat. Chiziqlarning joylanishi har xil elementlarda mutlaqo o'xshash bo'ladi. Lekin turli elementlarning rentgen nurlari faqat to'lqin uzunliklari bilan farq qiladi. 1913 yilda G. Mozli 38ta elementning rentgen spektrini tushirdi, jumladan, kaltsiyidan ($Z=20$) ruxchaga ($Z=30$) bo'lgan 11 ta elementning rentgen spektrini sistemali ravishda tekshirib, bu elementlardan har birining rentgen spektridagi K-seriyasi bir-biriga yaqin joylashgan ikkita chiziq- $K\alpha$ va $K\beta$ dan ekanligini kuzatdi. Hosil qilingan spektrlarining rasmlarini esa elementlarning tartib nomerlari o'sish tartibida yuqorida pastga qaratib joylashtirdi. 4 rasmda Ti dan Zn gacha bo'lgan elementlar uchun $K\alpha$ va $K\beta$ chiziqlarning joylanishi ko'rsatilgan.

Demak, og'ish burchagi va og'gan zarrachalar sonini aniqlab, yadro zaryadining kattaligini taxminan aniqlash mumkin. Tekshirishlar natijasida, yadro zaryadining kattaligi elementlarning Mendeleev davriy sistemasidagi nomeriga yaqin son ekanligi aniqlandi. Buni G. Mozli (1913) va Chedvik (1920) isbotlab berdilar. Rentgen nurlar nihoyatda tez harakatdagi elektronlarning biror qattiq metallga urilishi natijasida hosil bo'ladi. Rentgen nurlarning spektrini hosil qilish uchun antikatod sinaladigan metalldan yasaladi yoki platinadan yasalgan antikatodga sinaladigan elementning biror birikmasi joylanadi, so'ngra hosil bo'lgan nurni kristalldan o'tkazib, rentgen nuri tarkibiy qismlarga parchalanadi. Spektr hosil qilinadigan ekran sifatida fotoplastinka olinadi; plastinka ochiltirilgandan keyin unda spektr chiziqlari ravshan ko'rindi. Har qaysi elementning rentgen spektri bir-biriga yaqin joylashgan bir necha chiziqdandan yoki chiziqlarning bir necha gruppasidan, ya'ni seriyalardan iborat. Chiziqlarning joylanishi har xil elementlarda mutlaqo o'xshash bo'ladi. Lekin turli elementlarning rentgen nurlari faqat to'lqin uzunliklari bilan farq qiladi. 1913 yilda G. Mozli 38ta elementning rentgen spektrini tushirdi, jumladan, kaltsiyidan ($Z=20$) ruxchaga ($Z=30$) bo'lgan 11 ta elementning rentgen spektrini sistemali ravishda tekshirib, bu elementlardan har birining rentgen spektridagi K-seriyasi bir-biriga yaqin joylashgan ikkita chiziq- $K\alpha$ va $K\beta$ dan ekanligini kuzatdi. Hosil qilingan spektrlarining rasmlarini esa elementlarning tartib nomerlari o'sish tartibida yuqorida pastga qaratib joylashtirdi. 4 rasmda Ti dan Zn gacha bo'lgan elementlar uchun $K\alpha$ va $K\beta$ chiziqlarning joylanishi ko'rsatilgan.

Mavzuni yorituvchi nazorat savollar.

1. *Triadalar qonunu kim tomonidan yaratilgan?*
2. *Davr, gruppa, qator tushunchalari.*
3. *D. I. Mendeleevning davriy qonunini va davriy qonunning hozirgi zamon ta'rifini qanday tushuntirasiz? Uning rivojlanishi etaplarini ko'rsating?*
4. *Izotop, izobar va izoton tushunchalari qanday tushuncha?*
5. *Guruppaviy o'xshashlik nima? Uning qanday xususiyatlari bor?*
6. *Ionlanish energiyasi deb nimaga aytildi? Ionlanish energiyasi davor va guruhlarda qanday o'zgaradi?*
7. *Bog`lanish energiyasi, bog`lanish uzunligi, bog`lanish burchagi va ionlanish potensiali deb nimaga aytildi?*
8. *Elektronga moyillik nima? Elektronga moyillik davor va guruhlarda qanday o'zgaradi?*
9. *Elektromanfiylik tushunchasi kim tomonidan ochilgan? Elektromanfiylik guruh va davrlarda*

qanday o'zgarib boradi?

10. *Davriy sistemada davrlar va guruhlarda elementlarning metallik va metallmaslik xossalari qanday o'zgarib boradi?*
11. *Davriy qonunning fizik ma'nosini ayting?*